Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 82

ADABIYOT, MADANIYAT VA IJODIY TARJIMA

Stiven King apokaliptik asarlarining kinematografik talqini va badiiy xususiyatlari

Muhammad Abdurashidov*, Muhammad Abdurashidov

O’zbekiston davlat jahon tillar universiteti

✉ muhammadabdurashidov8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada amerikalik yozuvchi Stephen Kingning apokaliptik asarlari Matonat, Tuman va Uyali telefon hamda ularning kino va televideniyedagi ekran talqinlari qiyosiy-adabiy va intermedial jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi apokaliptik obraz, motiv va makonning kinematografik talqinini aniqlash hamda adabiy matndan kino tiliga o‘tish jarayonidagi badiiy transformatsiyalarni ochib berishdan iborat. Tadqiqot qiyosiy-tipologik, intermedial, adaptatsion va narratologik-strukturaviy tahlil metodlariga asoslanib, Linda Xatcheon, Robert Stem, Brayan MakFarlayn va Lorenzo DiTommassoning nazariy qarashlariga tayanadi. Natijalar King asarlaridagi apokaliptik falokat insonning axloqiy tanlovi, qo‘rquvga munosabati va ijtimoiy munosabatlarini ochib beruvchi badiiy vosita ekanini ko‘rsatdi. Ekran talqinlarida introspektiv-psixologik tasvir kadr, montaj, yorug‘lik-soya, ovoz va musiqa kabi kinematografik vositalar orqali qayta ifodalanadi. Turli transformatsion strategiyalar qo‘llanilganiga qaramay, uch asarning ekran talqinlarida apokaliptik mazmun saqlanib qoladi.

Kalit so‘zlar

apokaliptik adabiyot, Stiven King, ekranlashtirish, adaptatsiya nazariyasi, kinematografik talqin.

DOI: 10.5281/zenodo.23278349

KIRISH

Apokaliptik adabiyot zamonaviy adabiy jarayonning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda global falokat, sivilizatsiyaning yemirilishi, insonning omon qolishi, ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi va insoniyat kelajagi kabi masalalar badiiy talqin qilinadi. Mazkur mavzularning kinematografiyada keng qo‘llanilishi adabiy asar va ekran o‘rtasidagi munosabatni, xususan, apokaliptik narrativning bir san’at turidan ikkinchisiga o‘tish jarayonini o‘rganishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Stephen King ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotshunoslik tadqiqotlari ichida amerikalik olim Toni Magistralening ishlari alohida o‘rin tutadi. Uning *Landscape of Fear: Stephen King’s American Gothic* (*Qo‘rquv manzarasi: Stiven Kingning amerikacha gotikasi*) (1988) monografiyasida yozuvchi ijodidagi amerikacha gotik an’ana, qo‘rquv topografiyasi va axloqiy ziddiyatlar tahlil qilingan bo‘lsa, *Hollywood’s Stephen King* (*Gollivuddagi Stiven King*) (2003) asarida King asarlarining ekranlashtirilishi maxsus tadqiq etilib, adabiy manba va kinematografik talqin o‘rtasidagi mazmuniy hamda uslubiy munosabatlar ko‘rib chiqilgan [1; 2].

Duglas E. Vinter *Stephen King: The Art of Darkness* (*Stiven King: Zulmat san’ati*) (1984) asarida yozuvchining ijodiy faoliyati va qo‘rquv poetikasini badiiy-psixologik nuqtai nazardan yoritgan [4]. Maykl R. Kollings esa King ijodiga bag‘ishlangan bir qator monografik va bibliografik tadqiqotlar yaratgan. Jumladan, uning *The Many Facets of Stephen King* (*Stiven King ijodining ko‘p qirralari*) (1985), *The Films of Stephen*

King (*Stiven King filmlari*) (1986) hamda *The Work of Stephen King* (*Stiven King ijodi*) (1996) asarlarida yozuvchining ijodiy merosi, asarlari va ekranlashtirilishi turli jihatlardan tizimlashtirilgan [5–7].

Stephen King asarlarining kinematografik talqinini o‘rganishda Mark Brauningning *Stephen King on the Big Screen* (*Stiven King katta ekranda*) (2009) tadqiqoti alohida ahamiyatga ega. Muallif King asarlarining ekranlashtirilishini faqat adabiy manbaga qanchalik sodiq qolinganligi asosida baholashdan voz kechib, filmlarning o‘ziga xos kinematografik xususiyatlari, janriy talablari va adaptatsiya jarayonidagi o‘zgarishlarni tahlil qiladi [3]. Brauning adaptatsiya jarayonida roman yoki hikoyadagi materialning qisqartirilishi, kengaytirilishi, konkretlashtirilishi va boshqa kinematografik vositalar orqali qayta shakllantirilishini ko‘rsatadi [3]. Shuningdek, tadqiqotda King ekranlashtirishlarini intertekstuallik, transtextuallik va janr nazariyasi bilan bog‘liq holda o‘rganish taklif etiladi [3].

Apokaliptik adabiyot nazariyasi nuqtai nazaridan Lorenzo DiTommasso tadqiqotlari ham muhim metodologik asoslardan birini tashkil etadi. Uning ishlarida zamonaviy apokaliptik tafakkurning adabiyotdagi shakllari, apokaliptik va postapokaliptik syujetlarning asosiy xususiyatlari hamda falokat tasvirining zamonaviy madaniyatdagi o‘rni tahlil qilinadi [8]. Stephen Kingning *The Stand* (*Matonat*) kabi asarlaridagi ommaviy falokat, insoniyatning yo‘qolib ketish xavfi va yakuniy qarama-qarshilik kabi motivlar mazkur nazariy yondashuv doirasida o‘rganilishi mumkin [8].

Adabiy asarning kino tiliga transformatsiyasi masalasi esa adaptatsiya nazariyasi doirasida keng o‘rganilgan. Linda Xatcheon *A Theory of Adaptation* (*Adaptatsiya nazariyasi*) (2006) asarida adaptatsiyani faqat manba matnga sodiqlik darajasi asosida baholashdan ko‘ra, uni mustaqil ijodiy jarayon va alohida badiiy mahsulot sifatida o‘rganish zarurligini asoslaydi [9]. Robert Stem *Beyond Fidelity: The Dialogics of Adaptation* (*Sodiqlikdan tashqarida: adaptatsiya dialogikasi*) (2000) maqolasida adaptatsiyani manba asar bilan o‘zaro dialogga kirishuvchi intertekstual jarayon sifatida ko‘rib, uni faqat “sodiqlik” mezoni asosida baholashning cheklanganligini ko‘rsatadi [10]. Brayan MakFarlane *Novel to Film: An Introduction to the Theory of Adaptation* (*Romandan filmga: adaptatsiya nazariyasiga kirish*) (1996) asarida esa adabiy asarning kino vositasiga o‘tish jarayonida narrativ va tasviriy elementlarning qanday transformatsiyaga uchrashini tizimli ravishda tahlil qiladi [11].

Mazkur tadqiqotlar asosida shuni ko‘rish mumkinki, Stephen King ijodidagi gotik va qo‘rquv estetikasi [1; 4], yozuvchi asarlarining kino va televideniyedagi talqini [2; 3; 6], apokaliptik adabiyotning nazariy xususiyatlari [8], shuningdek, adabiy asarning kino tiliga transformatsiyasi [9–11] muayyan darajada o‘rganilgan. Biroq aynan Kingning apokaliptik asarlarida shakllangan apokaliptik makon, falokat motivlari va insonning psixologik holatlarining kinematografik talqini bir nechta asar doirasida qiyosiy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan.

Shu nuqtai nazardan, *The Stand* (*Matonat*), *The Mist* (*Tuman*) va *Cell* (*Uyali telefon*) kabi asarlarning ekran talqinlarida apokaliptik makon, obraz, motiv va psixologik holatlarning kino vositalari orqali qanday transformatsiyaga uchrashi masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jihat tadqiqotning ilmiy bo‘shlig‘ini belgilaydi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqot sifatli (qualitative) tadqiqot dizayniga asoslanib, Stephen Kingning apokaliptik asarlari — *Matonat*, *Tuman* va *Uyali telefon* — hamda ularning kino va televideniyedagi adaptatsiyalarini qiyosiy-adabiy va intermedial aspektda tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot obyekti ushbu asarlar va ularning ekran versiyalaridan iborat bo‘lsa, predmeti apokaliptik motiv, obraz, makon va narrativ tuzilmaning adabiy matndan audiovizual shaklga o‘tish jarayonidagi transformatsiyasidir.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik metod orqali adabiy matn va ekran adaptatsiyasidagi syujet, obrazlar tizimi, makon, motiv va voqealar rivoji qiyoslandi. Adaptatsiya original matnning oddiy nusxasi emas, balki mustaqil badiiy qayta yaratish jarayoni sifatida qaraldi. Bu yondashuv Linda Xatcheonning adaptatsiya haqidagi qarashlari [9] va Robert Stemning adaptatsiyani intertekstual dialog sifatida talqin qiluvchi konsepsiyasiga [10] asoslanadi.

Adaptatsion tahlil orqali original va ekran variantlari o‘rtasidagi syujet, personaj, makon, voqealar ketma-ketligi va yakundagi o‘zgarishlar aniqlandi. Bunda Brayan MakFarlaynening narrativ transformatsiyaga

oid qarashlaridan foydalanildi [11]. Shuningdek, Stiven King asarlarining ekranlashtirilishida materialning qisqartirilishi, kengaytirilishi va qayta tashkil etilishi [3] hisobga olindi.

Narratologik-strukturaviy tahlil asosida falokat, jamiyatning parchalanishi, omon qolish, qo‘rquv, axloqiy tanlov va yangi tartibning shakllanishi kabi apokaliptik narrativ komponentlar o‘rganildi. Ushbu yondashuv Lorenzo DiTommasoning apokaliptik adabiyotga oid nazariy qarashlariga tayanadi [8].

Tahlil jarayonida *Matonat*, *Tuman* va *Uyali telefon* asarlarining ekran talqinlari apokaliptik makon, falokat obrazi, omon qolish, qo‘rquv atmosferasi, ijtimoiy parchalanish, inson va jamiyat munosabatlari hamda vizual ifoda mezonlari asosida qiyoslandi. Natijada adabiy matndagi badiiy komponentlarning ekranlashtirish jarayonida saqlanishi, o‘zgarishi yoki yangi kinematografik shaklga ega bo‘lishi aniqlandi.

Tadqiqotning ishonchliligi adaptatsiya nazariyasi [9–11], Stephen King ijodi va uning ekranlashtirilishiga oid tadqiqotlar [1–7] hamda apokaliptik adabiyot nazariyasiga oid ilmiy qarashlardan [8] kompleks foydalanish orqali ta’minlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Stephen Kingning *Matonat*, *Tuman* va *Uyali telefon* asarlaridagi apokaliptik makon adabiy matndan ekranga o‘tishda sezilarli transformatsiyaga uchraydi. Adabiy matnda makon ko‘pincha ichki monolog, tasviriy tafsilot va simvolik ma’no qatlamlari orqali beriladi, ekran versiyasida esa bu funksiyani kadr kompozitsiyasi, yorug‘lik-soya nisbati va montaj ritmi bajaradi [3]. Xususan, *Matonat*ning teleserial adaptatsiyalarida (1994, 2020) AQSHning keng hududlariga tarqalgan epidemiya oqibatidagi bo‘shliq va vayronagarchilik panoramali kadrlar orqali vizual ravishda kuchaytirilgan bo‘lib, bu Xatcheonning adaptatsiyani manba matnning mustaqil badiiy qayta tug‘ilishi sifatidagi talqiniga mos keladi [9].

Tuman ekranlashtirilishida esa apokaliptik falokat mahalliy va yopiq makon (supermarket) doirasiga siqilgan holda beriladi, bu esa Stemning adaptatsiyani intertekstual dialog sifatidagi konsepsiyasi nuqtai nazaridan qaraganda [10], rejissyor tomonidan qo‘rquv atmosferasini kengroq ijtimoiy metafora, ya’ni ommaviy vahima, irratsional ishonch va guruh zo‘ravonligi darajasiga ko‘tarish uchun ongli tanlov ekanligini ko‘rsatadi. Bunda personajlar orasidagi ijtimoiy parchalanish adabiy matndagi ichki tafakkur tasviridan farqli o‘laroq, dialog, guruh dinamikasi va aktyorlik ijrosi orqali tashqi ziddiyatga aylantirilgan [3].

Uyali telefon filmida esa MakFarlaynening narrativ transformatsiya nazariyasiga muvofiq [11], asl romandagi ba’zi syujet chiziqlari qisqartirilgan, ayrim personajlar birlashtirilgan va yakun butunlay o‘zgartirilgan holda taqdim etilgan. Bu o‘zgarish, tahlil shuni ko‘rsatadiki, adabiy matndagi falsafiy-psixologik ochiqlikni kinoning tijorat va janr talablariga moslashtirish ehtiyoji bilan izohlanadi [3].

Uch asarni qiyoslab tahlil qilish DiTommasoning apokaliptik adabiyotga oid nazariy qarashlariga mos ravishda [8] shuni ko‘rsatadiki, King asarlarida apokalipsis shunchaki vayronagarchilik voqeasi emas, balki inson tabiatini ochib beruvchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bunda uning axloqiy tanlovi, qo‘rquv oldidagi reaksiyasi va yangi ijtimoiy tartib qurish qobiliyati namoyon bo‘ladi. Ekran versiyalarida bu funksiya saqlanib qoladi, biroq uning ifoda shakli o‘zgaradi: adabiy matndagi introspektiv, ko‘p qatlamli psixologik tasvir ekranda vizual belgilar, ya’ni kadr, montaj, ovoz va musiqa tizimiga siqiladi, natijada apokaliptik mazmun yo‘qolmaydi, balki yangi, audiovizual badiiy shaklda qayta tashkil etiladi [9–11].

Shunday qilib, natijalar tadqiqotning boshida ilgari surilgan gipotezani tasdiqlaydi: King asarlarining ekranlashtirilishida apokaliptik mazmun saqlanib qolgan holda, uning ifoda vositalari kinematografik tabiatga mos ravishda qayta quriladi. Bu esa adabiyot va kino o‘rtasidagi badiiy muloqotning murakkab, ko‘p qatlamli xarakterini namoyon etadi [3, 8–11].

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot Stiven Kingning *Matonat*, *Tuman* va *Uyali telefon* apokaliptik asarlari hamda ularning kinematografik talqinlarini qiyosiy-adabiy va intermedial jihatdan tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, King ijodida apokaliptik falokat shunchaki syujet unsuri emas, balki insonning axloqiy tanlovi, qo‘rquvga munosabati va ijtimoiy munosabatlarini ochib beruvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat tahlil qilingan asarlarda barqaror saqlanib, DiTommasoning apokaliptik adabiyotga oid

nazariy qarashlari bilan uyg‘unlashadi [8].

Ikkinchidan, adabiy matndagi apokaliptik makon, atmosfera va psixologik holatlar ekranlashtirish jarayonida mazmunan saqlangan holda, kadr, montaj, yorug‘lik-soya, ovoz va musiqa kabi kinematografik vositalar orqali qayta ifodalanadi. Bu holat Xatcheon va Stemning adaptatsiyani mustaqil badiiy qayta yaratish va intertekstual dialog sifatida talqin qiluvchi qarashlariga mos keladi [9–10].

Uchinchidan, *Matonat*, *Tuman* va *Cell* adaptatsiyalarida syujetning kengaytirilishi, makonning toraytirilishi yoki yakunning qayta qurilishi kabi turli transformatsion strategiyalar qo‘llangan. Shunga qaramay, ularning barchasida apokaliptik mazmun saqlanib qoladi. Bu MakFarlaynening narrativ transformatsiya haqidagi qarashlari bilan mos keladi [11].

Umuman, tadqiqot natijalari Stiven Kingning apokaliptik asarlarini ekranlashtirishda adabiy mazmun saqlangan holda, uning ifoda shakli vizual va audiovizual vositalar orqali qayta tashkil etilishini ko‘rsatdi. Natijada apokaliptik makon, qo‘rquv atmosferasi va insonning omon qolish tajribasi yangi kinematografik shaklda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalaridan zamonaviy Amerika adabiyoti, adabiyot va kino hamda adaptatsiya nazariyasiga oid fanlarda o‘quv-uslubiy material sifatida foydalanish mumkin. Kelgusida Kingning boshqa apokaliptik va postapokaliptik asarlarini hamda ularning tomoshabinlar tomonidan qabul qilinishini resepsion jihatdan o‘rganish tadqiqotning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Browning, M. (2009). Stephen King on the big screen. Intellect Books.

[2] Collings, M. R. (1985). The many facets of Stephen King. Starmont House.

[3] Collings, M. R. (1986). The films of Stephen King. Starmont House.

[4] Collings, M. R. (1996). The work of Stephen King: An annotated bibliography and guide. Borgo Press.

[5] DiTommaso, L. (2014). Apocalypticism and popular culture. In J. J. Collins (Ed.), The Oxford handbook of apocalyptic literature (pp. 473–491). Oxford University Press.

[6] Hutcheon, L. (2006). A theory of adaptation. Routledge.

[7] Magistrale, T. (1988). Landscape of fear: Stephen King’s American Gothic. Bowling Green State University Popular Press.

[8] Magistrale, T. (2003). Hollywood’s Stephen King. Palgrave Macmillan.

[9] McFarlane, B. (1996). Novel to film: An introduction to the theory of adaptation. Clarendon Press.

[10] Stam, R. (2000). Beyond fidelity: The dialogics of adaptation. In J. Naremore (Ed.), Film adaptation (pp. 54–76). Rutgers University Press.

[11] Winter, D. E. (1984). Stephen King: The art of darkness. New American Library.